

6-10-2019

USE FROM THE NATIONAL HERITAGE OF PRODOKES IN DEVELOPMENT READING(Example of primary classes)

Dilafuz Muminova
NamSU researcher

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Muminova, Dilafuz (2019) "USE FROM THE NATIONAL HERITAGE OF PRODOKES IN DEVELOPMENT READING(Example of primary classes)," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 2 , Article 222.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss2/222>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

**USE FROM THE NATIONAL HERITAGE OF PRODOKES IN DEVELOPMENT
READING(Example of primary classes)**

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

**KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR MILLIY MEROSIDAN
FOYDALANISH (Boshlang'ich sinflar misolida)**

Dilafro'z Mo'minova

NamDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. O'zbek xalqining milliy va ma'naviy merosi haqidagi bilimlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, o'z faoliyatini va uning boshlang'ich maktabda qadriyatini oshirishning bir yo'li hisoblanadi.

Kalit so'zlar: meros, kitob, madaniyat, milliy, materiaal.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОТ НАЦИОНАЛЬНОЙ НАСЛЕДИЕ ПРОДОКОВ В
РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬНОСТ (Пример начальных классов)**

Дилафруз Муминова

Научный сотрудник НамГУ

Аннотация. Развитие и развитие знаний о национально-духовном наследии узбекского народа, что является способом повышения его активности и его значения в начальной школе.

Ключевые слова: наследие, книга, культура, национальность, материал.

**USE FROM THE NATIONAL HERITAGE OF PRODOKES IN DEVELOPMENT
READING (Example of primary classes)**

Dilafruz Muminova

NamSU researcher

Abstract. Development and development of knowledge about the national and spiritual heritage of the Uzbek people, which is a way to increase its activity and its value in primary school.

Keywords: heritage, book, culture, nationality, material.

O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Mustaqillikni mustahkamlash uchun olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi islohatlar inson huquqi va erkinliklarini himoya qiluvchi demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishni ko'zda tutadi.

Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning bosh maqsadi ham insonning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bunday mashaqqatli murakkab yo'lda bizga doimo mash'ala bo'ladigan, yo'limizni charog'on yoritib turadigan otalarimiz, bobolarimiz, ajdodlarimizning ibratli hayot saboqlari bor. Milliy

qadriyatlarni tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa sharqona odob-ahloq an'analariga e'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir.

Milliy merosimizning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ta'lim va tarbiyadagi hikmatlardadir. Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari ko'plab daholar bundan tashqari jadidchilik namoyondalaridan Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Ibrat kabi allomalarimiz ham ilm-fan, adabiyot va san'at, umuman, madaniyatni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shganlar. Xalqimizning mard va qahramon farzandlaridan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurlarning hayoti, ularning bosib o'tgan yo'li, butun faoliyati bugungi va kelgusi avlod uchun ibrat ekanini hamisha yodda tutish lozim. Buyuk allomalarimiz va xalq qahramonlarining faoliyati har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga egaligi va xalqimizning milliy-ma'naviy merosi ekanligini anglashimiz zarur.

Xronologik tamoyil asosida yozilgan o'zbek xalqining milliy qadriyatlar sifatida "O'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi an'analari tarixidan", "O'zbek xalq pedagogikasi", "O'zbek xalq pedagogikasidan namunalar" kabi ilmiy bayon qilingan materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy, ma'naviy tarbiyalashda, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'rganishda qo'l keladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning o'qish, odobnoma, atrof muhitni muhofaza qilish, konstitutsiyani o'rganimiz kabi darsliklarida o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'rganish xususidagi bo'limlardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Natijada o'quvchilarning o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosi haqidagi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash, bu orqali ularda faollikni oshirish maqsadida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini o'rganish va u orqali o'quvchilarda faollikni oshirish va ularda kitobxonlikni tarbiyalash metodikasi ishlab chiqilgan xolda

- o'zbek xalqining milliy-meros haqidagi bilimlarni shakllantirishga doir manbalar (materiallarni) bola yoshiga mosligini belgilash;

- sinfdan tashqari darslarda o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosni samarali omillar asosida o'rganish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlik asosida faollashtirishda o'zbek xalqining milliy ma'naviy merosidan foydalanib, ularda faollikni oshirishning pedagogik imkoniyatlari bo'yicha quyidagi asosiy shartlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqligi asoslanadi.

Kitob mutaolosini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini o'rganishni takomillashtirish, o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasida o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini o'rganishda o'zaro munosabatlarning izchilligini ta'minlash, o'quvchilarning ijtimoiy-pedagogik psixologik imkoniyatlarini oshirish, tadbirlar o'tkazish, o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashi shuning bilan birga

boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy-ma'naviy merosga bo'lgan chuqur hurmatni qaror toptirish kerak.

O'qish darslarida o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini interfaol metodlar asosida o'quvchilarga yetkazish. O'quvchilarning o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini o'rganishda quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

- o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosi bo'yicha bilimlarni boshlang'ich sinf o'quv predmetlari bo'yicha olishi;

- o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosning qiyosiy, ijtimoiy, tashkiliy va texnikaviy tizimlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash;

- texnologiyalar bo'yicha kompetentligi (jihaz va asbob-uskunalarni tanlash ko'nikmasi, tashxis qo'yish va texnik xizmat ko'rsatish, aniq belgilangan vazifalar yechimida texnologiyalarni qo'llash);

O'quvchilarda o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosni bilish bosqichlari aniqlandi. Bu 3–sinf o'quvchilari bilan o'qish kitobiga ko'plab turli xil ertaklar, masallar, dostonlar kabi xalq og'zaki ijodidan misollar kiritilgan. Xalq og'zaki ijodi turli mavzularga bag'ishlang bo'lib, o'quvchilarni rostgo'ylikka, donishmandlikka, odobli bo'lishga undaydi. Maslan: “Til qudrati”, “Botir mergan va chaqimchi”, “Halollik”, “Donishmand yigit”, “Rustamxon”, “Alpomish”, “Qo'shterak”, “Qaysar Buzoqcha”, “Chumoli va Tipratikon”, “Qo'riqchining sabog'i”, “Bevafo boylik”, “Vada berdi”, “Mehnatkash qiz”, “O'g'lon”, “Kitob”, “Bola Alisher”, “Cho'pon yigit Shiroq”, “Oltmish gaz arqon”, “Birinchi qor”, “Qish ertagi”, “Ikki qiz”, “Suhbat”, “Non – haqida”, “Soy suvi haqida ertak”, “Onani rozi qilish haqida”, “Ota–onani hurmatlash haqida”, “Bobur va Humoyun”, “Ota- ona duosi”, “Ona mehri”, “Chumoli bilan chivin”, “Noahillik oqibati” kabi ertaklar shular jumlasidandir. Demak, boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirishda ajdodlar milliy-ma'naviy merosidan foydalanishda interfaol metodlarning ahamiyati ham kattadir. Shunga ko'ra, ularning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va ularning faolligini oshirishda pedagogik imkoniyatlardan unumli foydalanishning pedagogik tizimini yaratish ayni mudao bo'lar edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirishda ajdodlar milliy-ma'naviy merosidan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- kitobxonlikni rivojlantirishda ajdodlar milliy-ma'naviy merosiga suyanish;

- kitobxonlikni rivojlantirishda ajdodlar milliy-ma'naviy merosidan foydalanishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustivor bo'lishi;

- kitobxonlikni rivojlantirishda ajdodlar milliy-ma'naviy merosidan foydalanishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechmoq zarur;

- milliy-ma'naviy merosdan unumli foydalanish orqali yosh avlodni keng ma'noda faollashtirishga va milliy-ma'naviy merosni asrab avaylab avlodlarga yetkazmoq lozim;

- milliy-ma'naviy meros yangi moddiy ehtiyoj va talablar, yangi texnika va texnologiya, yangi qulayliklar, farovonlikka mos holda shakllanishi zarur;

Boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirishda ajdodlar milliy-ma'naviy merosidan foydalanishning birdan-bir to'g'ri yo'li milliy maktablarni mustaqillik g'oyalari bilan amaliyotga joriy etishdan iborat bo'ladi deb ishonch bildiramiz.

References:

- 1.Umarova M., Hakimova SH "O'qish kitobi" 3-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" Toshkent, 2008- yil
2. E.Xoliqov, M.Lafasov, M.Rustamov "Merosimiz ildizlari" T., "Ma'naviyat" 2008 yil.
- 3.S.Komilova "Yoshlar tarbiyasida ilmiy merosimizning o'rni" T., "Mehnat" 2000 y